

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

## BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYON VA KOMPENSATSIYA O'RNI

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti  
Maxsus pedagogika: logopediya yo'naliishi 1-bosqich talabasi  
**Shavkatbekova Odina Mirzaakbar qizi**

**Annatotsiya:** Ushbu tezisda bolalarning psixik rivojlanishida korreksiya va kompensatsiyaning o'rni, yuzaga keladigan holatlari va ularning diagnostikasi haqida ma'lumot keng miyosda yoritilgan.

**Kalit so'z:** psixik, korreksiya, nuqson, rivojlanish, metodlar, ko'nikma.

Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadilar. Ma'lumki, ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to'siqlardan oshib o'tish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevaraktrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda kata sharoit yaratib beradi.

Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyat va xayolini — umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlanadiradi. Bu yoshdagagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idroki o'sishi uchun zamin yaratadi.

Uotson «Bolani psixologik tarbiyalash» asarida bolani ruhan va jismonan soglom qilib tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida to'xtalib oldi. Qat'iy kun tartibiga rioya qilish, turli stimullarning ta'siridan himoya qiladigan bolaning maxsus xonasi mavjudligi, bolaga nisbatan muhabbat va g'amxollik kolsatishda me'yor bolishi zarurligini ta'kidladi.

Uotson insonlarni tarbiyalashda muhitning ustuvor rolini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, soglom bolalar to'plamidan muhitning ta'sirida kimni bo'lsa-da tarbiyalash m um kin: yoki bir xil xulq-alvorli bolalar qilib tarbiyalash mumkin, yoki har xil sohadagi insonlarni - vrach, soiuvchi, yoki o'g'ri qilib tarbiyalash mumkin. Klassik bixevoirizmning asosiy g'ovasi quyidagilardan iboral: bola psixikasining rivojlanishi asosan atrof-muhitga bog'liq. Bola taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda stimullar va ular asosida paydo bo'ladigan reaksiyalar o'rtasida bog'lanish hosil bo'lishiga, o'rganishga imkon beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan sharoitlarni o'rganishga e'tibor qaratildi.

Bolalarning psixik rivojlanishi muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishida muhim o'rinn tutadi. Bu jarayonni to'g'ri tushunish, ularga to'g'ri tashxis qo'yish barkamol inson qilib yetishishga imkon yaratadi. Buning natijasida bola aqliy va ijtimoiy ko'nikmalarni hosil qilishga diqqati jalb qilinadi.

Korreksiya qilishning ahamiyati;

Pedagogik jihatdan correksiya yunoncha (correctio) so'zidan olingan bo'lib tuzatish degan ma'noni bildiradi. Bolalar psixikasida uchraydigan psixik buzilishlar yoki kechikishlar turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin. Masalan, genetik omillar, atrof muhit ta'sirlari va tarbiya va

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

**30-OKTABR**

**ANDIJON,2024**

h.k. Bolaning psixikasi buzilganligini bilgandan so'ng turli metodlar, yo'nalishlar va o'yinlar orqali ularni korrektsiyalash muhim hisoblanadi.

Psixikaning buzilishi natijasida o'zining qobig'iga o'ralib qolish, ya'ni atrofdagi ijtimoiy muloqotga qo'shilmasligi kuzatiladi. Bu holat esa boshqa sensor sistemalariga katta ta'sir qiladi. Bolalarda ijtimoiy muloqotga kirishmaganligi sababli nutq shakllanishi ishdan chiqishi, so'zlarning uzilgan holatda namoyon bo'lishi, aqliy orqada qolish holatlari yuzaga keladi.

Kompensatsiyalar rivojlanishi;

Hozirgi kunda ilm-fan jadal o'sib bormoqda. Kompensatsiya so'zi qoplash, to'ldirish degan ma'noni bildiradi. Bolalarning psixik rivojlanishida ham kompensatsiya alohida o'ringa ega. Aqliy zaiflik yuzaga kelgan yoki RRS holatlarda boshqa sensor sistemalari ishdan chiqqanligi hisobiga boshqa analizatorlarning faoliyati kuchayadi. Shu holatda kompensatsiya kuzatiladi. Jamoada hamjihatlik ruhini tiklash, hamjamoaqil haqida ta'lif berish, adabtatsiyani shakllanishiga imkon yaratadi. O'sishi, rivojlanishini qo'llab quvvatlash uchun ota-onalar, o'qituvchilar bolalar bilan birga aqliy mashg'ulotlar bajarishlari lozim. Har bir bolaga inkluziv ta'lif shaklida shug'ullanish zarur hisoblanadi.

Xulosa;

Bolalarning psixik rivojlanishining buzilishini davolash va oldini olish uchun maktabgacha ta'lif tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog va kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni ta'lif sohasiga tayyorlash va ijtimoiy muloqotda bo'lishini ta'minlash hisoblanadi. 2022- yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lif va tarbiya standartini tasdiqlash" to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra bolaning rivojlanishi kompensatsiya bilan belgilab beriladi!

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
2. Dilnoza Xalkuziyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiyirodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021/6, pp 704-706
3. Nishanova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
4. Nishanova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011
5. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y